



## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

---

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*magistranti*

*Sadullayeva Mexrinov Djamshedovna*

*[mexrinozs@icloud.com](mailto:mexrinozs@icloud.com)*

*(90) 081 86 63*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzuga aylangan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan, ilg'or davlatlar tajribasi hamda imkoniyatlaridan foydalanilgan, shuningdek, kelgusida barqaror rivojlangan oziq-ovqat sohasiga erishish uchun sezilarli xizmat qiladigan chora tadbirlar raqamli texnologiyalar ko'rinishida ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat, raqamli texnologiyalar, institutsional tizim, salohiyat, qishloq xo'jaligi, regulyativ gomeostaz.

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается актуальный на сегодняшний день вопрос обеспечения продовольственной безопасности с использованием опыта и возможностей развитых стран. Также предлагаются меры в виде цифровых технологий, способные внести значительный вклад в достижение устойчивого и развитого продовольственного сектора в будущем.



**Ключевые слова:** продовольствие, цифровые технологии, институциональная система, потенциал, сельское хозяйство, регулятивный гомеостаз.

---

## ENSURING FOOD SECURITY IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

**Abstract:** This article examines the increasingly relevant issue of ensuring food security, drawing on the experience and capabilities of advanced countries. It also proposes measures in the form of digital technologies that can significantly contribute to achieving a sustainable and well-developed food sector in the future.

**Keywords:** food, digital technologies, institutional system, capacity, agriculture, regulatory homeostasis.

### KIRISH

Iqlim o'zgarishi, aholi soning oshishi, hamda global iqtisodiy muammolar sababli yanada ko'plab o'rganishlar tadqiqot ishi olib borilishi talab qilayotgan oziq-ovqat mojarosi bugungi kunda nafaqat O'zbekiston balki, butun yer yuzining e'tiborini o'ziga qaratishga olib bormoqda. BMT ning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti FAO oziq-ovqat xavfsizligini 4 ta element bilan ifoda etadi. "Oziq-ovqat xavfsizligi — bu barcha insonlar har doim faol va sog'lom hayot kechirishlari uchun yetarli, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatga jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan doimiy ega bo'lish holatidir."<sup>1</sup> Bu ta'rif o'zida 4 ta mavjudlik, kiruvchanlik, foydalanish, barqarorlik kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Insoniyat quyida keltirilgan tarkibiy qismlarni o'zida aks eta olsagina sifatli va

---

<sup>1</sup> Food and agricultural organization <https://www.fao.org/home/ru>



xavfsiz ozuqa mahsulotini iste'mol qila oladi. Biroq, ayrim ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy kamchiliklar ochlik va ozuqa tanqisligi kabi holatlar ko'payishiga sabab bo'lib kelmoqda.

### **Dolzarbligi**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining barqaror rivojlanish strategiyasini qabul qilgan bo'lib, unda Bugungi kunda butun jahon miqyosida insoniyat yashashi va tinj hayot kechirishi, davlat va jamiyat faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar tarkib topgan bo'lib, aynan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ya'ni ochlikni tugatish nomli yo'nalishning mavjudligi mavzuning nechog'li dolzarbligidan dalolat bermoqda. Ushbu 2-maqsadi orqali tashkilot o'zida qishloq xo'jaligini rivojlantirish, oziq-ovqat ishlab chiqarishni oshirish. Oziq-ovqat resurslaridan samarali foydalanish hamda aholining to'yimli oziqlanishini ta'minlash kabi ustuvor maqsadlarni ilgari surgan.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning kun mavzusiga aylanganligining yana bir isboti kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Qozog'istonga amaliy tashrifi dasturi doirasida 22-aprel kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari, Mo'g'uliston, Ozarbayjon, Gruziya va Armaniston delegatsiyalari rahbarlari bilan birgalikda Ostona shahridagi "EXPO" xalqaro ko'rgazmalar markazida tashkil etilgan Mintaqaviy ekologik sammitda ishtirok etib sammit mobaynida delegatsiya rahbarlariga chuqur hurmat ila aniq takliflarni bayon etgan bo'lib, aynan ushbu takliflarning deyarli barchasida oziq-ovqat xavfsizligini keltirib chiqaryotgan omillarni, ya'ni atmosfera havosini yaxshilash maqsadida "Markaziy Osiyoning toza havosi" davlatlararo konsorsiumini ta'sis etish, bojxona tizimida ekomahsulotlar uchun sertifikatlash tizimini o'zaro tan olish va mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish hamda Markaziy Osiyo atrof-



muhitidagi o‘zgarishlarning yagona mintaqaviy atlasini yaratish ham sanab o‘tgan.<sup>2</sup> Bu ham mavzu dolzarbligini asosiy me‘yoriy omil sifatida keltirib o‘tishi tabiiy hol.

### **Tadqiqot maqsadi**

Ushbu tadqiqotning maqsadi – oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash doirasi sezilarli natija bera oladigan raqamli texnologiyani joriy etish, uni malag oshirish jarayoni va uning ustidan mukammal regulyativ nazorat tizimni joriy etish hamda ushbu jarayonlarni tahliliy jadvallar asosida shakllantirishdan iborat. Quyida samarali raqamli texnologiya ishlab chiqishdagi ustuvor yo‘nalish hamda maqsadlar ko‘rsatilgan:

1. Qonunchilikda mavjud bo‘lgan raqamli infratuzilma tahlili;
2. Yuz berayotgan asosiy va keyinga qoldirib bo‘lmaydigan muammo va to‘siqlarni ajratib olish va ularning iqtisodiy-ijtimoiy ta‘siri va oqibatini aniqlash;
3. Tuzilishi kutilayotgan raqamli texnologiyaning 2030-yilga qadar mo‘ljallangan natija prognozi;

### **Muammo tahlili**

Qonunchiligimozdan ma‘lumki, 2024-yilning 16-fevral sanasida “Respublikada Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni qabul qilingan bo‘lib, Farmonga ko‘ra, Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Agrosanoatni raqamlashtirish markazi” davlat muassasasida Elektron agrosanoat bozori portali tashkil etilgan. Unga ko‘ra ichki bozorni asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash darajasi doimiy baholanishi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida onlayn rejimda kooperatsiya aloqalari yo‘lga qo‘yilib, elektron savdolar tashkil etilishi Elektron agrosanoat

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mintaqaviy ekologik sammitdagi nutqi



bozori portal zimmasiga yuklatilgan<sup>3</sup>. Quyida ushbu platformaning zaif hamda muammoli tomonlari jadval ko‘rinishida to‘liq yoritib berilgan.

Muammo	Taklif etilayotgan yechim
Raqamli texnologiyalarga nisbatan aholi orasidagi savodsizlik	Tegishli tuman, shahar hamda mayda birliklar orqali maslahat markazlari tashkil etib, treninglar tashkil etish.
Platformada yuzaga kelayotgan to‘lov tizimi bilan bog‘liq muammolar	Barcha ilova va bank kartalarini platforma bilan to‘liq integratsiya qilish
Sifat nazorati va ishonch tizimi yo‘qligi	Blokcheynning “Farm to fork” modeli qiyosida kuzatuv tizimini qo‘shish

### Taklif etilayotgan yechimlar va natija

Bugungi kun qishloq xo‘jaligida dehqon va xaridor o‘rtasidagi asosiy muammo bu o‘zaro ishonchsizlik va majburiyatlarning bajarilmasligidir. **Birinchi**dan, amaldagi platforma tizimlarida ko‘pincha bu holat kuzatilayotgan bo‘lib, agar Blokcheyn asosidagi smart-shartnomalar usulini yo‘lga qo‘yganda, texnologiyaning o‘zining avtomatik ravishda taraflar zaruriyatisiz, ya’ni inson omilisiz ishlaydigan yagona raqamli shartnoma tizimini ishga tushirishsa, Dehqon, fermer va xaridorlar o‘rtasida ishonch hamda huquqiy kafolat mujassamlashgan bo‘lar edi. Afzalligi shundaki, huquqiy kafolat bor yerda savdo ham sifat ham muddat va narx ham barqaror amalga oshiriladi.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2024 yildagi PF-36-son  
<https://lex.uz/uz/docs/-6802687>



*Ikkinchidan*, amalda mavjud bo‘lgan hamda endi amalga oshirish rejalashtirilayotgan barcha platformalarda AI – Sun’iy intellekt bo‘limini yo‘lga qo‘yish kerak. Mahsulot oldi-sotdisi amalga oshiriladigan platforma misolida aytadigan bo‘lsak, platforma nafaqat mahsulotni sotishi, balki mahsulotni qanday qilib yetishtirish tartibi va fors-major holatlardagi eng maqbul choralarni ham o‘rgatishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

*Uchinchidan*, shuningdek, yuqoridagi platformaga alohida ma’lumotlar yoki mahsulotlar tahlili bo‘limini kiritish ham samarali yo‘llardan biri bo‘lib xizmat qila oladi. Mahsulot yetishtiruvchi muayyan ozuqa mahsulotini yetishtirmoqchi bo‘lganda o‘sha mahsulot bozorda kam yoki ko‘pligi haqida ma’lumot olishi, qaysi mahsulot ko‘proq yetishtirishga muhtojligi, qaysi mahsulot yetishtirish talab qilmayotganini oldindan bilishi bozordagi narx navoni barqarorlashuvini, mahsulot isrofini oldini olishi, shuningdek, fermer va dehqonlar o‘rtasida ziddiyatlar kelib chiqishini, oldindan bashorat tizimi yo‘lga qo‘yishi mumkin.

Ushbu choralar amalga oshsa, platforma shunchaki e‘lonlar taxtasi emas, balki dehqonning **biznes-hamkoriga** aylanadi. Bu esa O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini va dehqonlarning daromadini bir necha barobarga oshirishga xizmat qiladi.

## **Xulosa**

Yuqorida bayon etilayotgan raqamli texnologiyalar bugungi kunda nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning bir vositasi, balki barcha rivojlangan va endi rivojlanayotgan davlatlarning strategic zaruriyati hisoblanadi. “Elektron agrosanoat bozori” keltirib o‘tilgan taklif va tavsiyalar asosida mukammal joriy etilsa, bozorda narxlar barqarorlashuvi, fermerda huquqiy kafolat, iste’molchida yuqori ishonch va xavfsizlik hissi, shuningdek, jamiyatda uyg‘un rivojlanish vujudga keladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar ro‘yxati

1. **FAO (BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti).** Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha materiallar. – Rim, 1996
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. **Shavkat Mirziyoyev.** Mintaqaviy ekologik sammitdagi nutqi. – 2026-yil 22-aprel.
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. [www.advise.uz](http://www.advise.uz)